



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 98 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	



AKTSIYADORLIK JAMIYATLARI KORPORATIV BOSHQARUVDA QAROR QABUL QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALALARI

Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada sun'iy intellekt, masofaviy boshqaruv, elektron ovoz berish, investorlar bilan interaktiv muloqot kabi zamonaviy texnologiyalar asosida qarorlar qabul qilish samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, investorlar, aksiyadorlar, qaror qabul qilish.

Abstract: This article explores the use of digital technologies to improve corporate governance and automate decision-making processes in joint-stock companies. It analyzes the effectiveness of decisions made using modern tools such as artificial intelligence, remote management, e-voting, and interactive communication with investors.

Key words: corporate governance, digital technologies, artificial intelligence, investors, shareholders, decision-making.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования корпоративного управления и автоматизации процесса принятия решений в акционерных обществах за счёт внедрения цифровых технологий. Анализируется эффективность решений, основанных на современных цифровых инструментах, таких как искусственный интеллект, дистанционное управление, электронное голосование и интерактивная связь с инвесторами.

Ключевые слова: корпоративное управление, цифровые технологии, искусственный интеллект, инвесторы, акционеры, принятие решений.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati, jumladan ularning institutsional va funksional mexanizmlarini takomillashtirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish, kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish" vazifalari belgilab berilgan [1]. Shu asosda, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy etishda qonunchilik-me'yoriy bazasini yanada takomillashtirish, davlat ishtirokini kamaytirib borish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari orqali qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali tashkil etish, tashkilotning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlovchi zamonaviy boshqaruv amaliyotini taklif etish, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari faoliyatining mustaqilligini va fond bozorlarida erkin harakatlarini ta'minlash, raqamli platformalar asosida aksiyadorlar kengashlari faoliyatini shaffof va bozor tamoyillari asosida qarorlar qabul qilishini ta'minlash, ijro organlari faoliyati samaradorligini oshirish, kuzatuv kengashlari faoliyatini baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy asoslar ishlab chiqish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida mulk egalari (aksiyadorlar) o'z huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki yollanma menejerlar orqali amalga oshiradi. Bu esa boshqaruv va mulk huquqining ajralib qolishiga olib keladi, shu sababli korporativ boshqaruv mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Korporativ boshqaruvning samarali faoliyat yuritishi uchun muayyan institutlar — aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va korporativ maslahatchilar faoliyat yuritadi. Bu institutlar orqali mulk egalari menejerlar faoliyatini nazorat qiladi va strategik qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari — shaffoflik, hisobdorlik va mas'uliyatlilik — samarali resurslar taqsimoti, ishlab chiqarishning kengayishi, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion rivojlanishga zamin yaratadi. Bunday boshqaruv shakllari iqtisodiy-moliyaviy barqarorlikni



ta'minlaydi. Jumladan, jahon amaliyotida korporativ boshqaruv tizimining takomillashuvi iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida baholanadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Samarali korporativ boshqaruv tizimi mulkdorlar, investorlar va barcha manfaatdor tomonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilgan holda, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu boshqaruv modeli shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlagan holda, korxona doirasida korrupsion xavflarni kamaytiradi va ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlaydi. Bu esa uzoq muddatli investitsiyaviy jozibadorlikni oshiradi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun barqaror moliyaviy muhit yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar – xususan, sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data), Internet+, bulutli texnologiyalar va blokcheyn – kompaniyalarda boshqaruv samaradorligini oshirish vositasi sifatida keng muhokama qilinmoqda. Bu jarayon korporativ boshqaruvdagi transformatsion yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

G. Brynjolfsson va A. McAfee (2014) raqamli inqilob kompaniyalar faoliyatini tubdan o'zgartirayotganini ta'kidlaydi. Ular kompaniyalar raqamli texnologiyalar orqali operatsion xarajatlarni kamaytirib, samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi [1].

N. Bloom, J. Van Reenen (2007) esa axborot texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv samaradorligi bilan bevosita bog'liq ekanligini amaliy tadqiqotlar asosida isbotlaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, texnologiyalardan keng foydalanadigan korxonalarda strategik rejalashtirish, monitoring va muvofiqlashtirish samaradorligi yuqori bo'ladi [2].

G. Shen va Z. Yuan (2020) o'z tadqiqotida internetlashtirish va sun'iy intellekt vositalarining tashkilotlarda innovatsion salohiyatni oshirishdagi roliga urg'u beradi. Ularning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar axborot oqimini soddalashtirib, qaror qabul qilishning tezkorligini oshiradi, bu esa foyda keltiradi [3].

Y. Zhang va D. Lee (2018) esa blokcheyn texnologiyasining ochiqlik va ishonchlilikni oshirish orqali korporativ boshqaruvdagi prinsipal-agent muammosini kamaytirishga xizmat qilishini qayd etadi. Ular blokcheyn orqali real vaqtli nazorat imkoniyatlari qaror qabul qilishda tavakkalchilikni pasaytirishini isbotlaydi [4].

Uzbek olimlaridan N. Sattorova (2023) raqamli texnologiyalarning O'zbekiston sharoitida korporativ boshqaruvdagi hisobotlarni avtomatlashtirish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va rahbarlarning javobgarligini oshirishdagi rolini o'rganadi. U axborot asimmetriyasi sharoitida texnologik yechimlar agentlik xarajatlarini kamaytirishi mumkinligini asoslaydi [5].

Shuningdek, T. Karimov (2022) katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilishda tahliliy vositalarning roli haqida yozgan. Uning fikriga ko'ra, real vaqtli ma'lumotlarga asoslangan qarorlar biznesni moslashuvchan va tezkor harakat qiluvchi tizimga aylantiradi [6].

M. Khodjayev va M. Rajabov (2021) esa O'zbekiston korxonalari misolida raqamli transformatsiyaning investitsiya oqimlari va tashqi ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotida texnologik joriy etish korxona qiymatini oshirishi aniq misollar bilan ko'rsatib berilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va qiyoslash, faraz va isbotlash kabi ilmiy tafakkur vositalari, shuningdek tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, statistik usullar, omilli tahlil hamda zamonaviy anketalash usullaridan keng foydalanildi. Ushbu yondashuvlar orqali raqamli texnologiyalar asosida qaror qabul qilish jarayonlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona va tashkilotlarda raqamli qaror qabul qilish tizimi samarali ishlashi uchun, ularning ichki tuzilmasida ma'lumotlar bazalari va taqsimlangan fayl tizimlarining integratsiyalashgan holatda ishlashi talab etiladi. Bu esa katta hajmdagi noma'lum yoki noaniq ma'lumotlarni inson tomonidan qayta ishlanishi mumkin bo'lgan umumlantirilgan shaklgacha qisqartirish imkonini beradi. Hozirda inson tafakkuri hali ham qaror qabul qilishda asosiy omil sifatida qolmoqda, biroq endilikda bu jarayonni elektron jadvallar, axborot paneli va tahliliy dasturlar orqali qo'llab-quvvatlovchi vositalar sezilarli darajada soddalashtirmoqda.

Mazkur qaror qabul qilish tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun muhim jihatlardan biri — barcha turdagi ma'lumotlarni umumlantirishning har doim ham to'g'ri natija bermasligidir. Katta hajmdagi ma'lumotlarni umumlantirish ba'zida ularning dastlabki tafsilotlari, o'zaro bog'liqliklari yoki ichki qonuniyatlarini yo'qotishga olib keladi. Inson tafakkurining hisoblash va strukturaviy tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan bo'lib, bu holat yordamchi vositalar (sun'iy intellekt, grafik interfeyslar) mavjud bo'lsa ham mavjud.




Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda vaqt, resurslar va imkoniyatlar cheklanganligi sababli, ushbu jarayon ko'plab hollarda to'xtab qolishi yoki ishonchsiz natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, umumlashtirish muhim uslub sifatida e'tirof etiladi, biroq u inson kognitiv (idrok) cheklovlari sababli har doim ham optimal bo'lmaydi. Ayniqsa, E. Simpson paradoksi deb nomlanuvchi statistik hodisa bunga yaqqol misoldir: umumiy ma'lumotlar to'plamida aniqlangan o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlik kichik guruhlariga bo'linganda yo'qolishi yoki qarama-qarshi yo'nalishga o'zgarib ketishi mumkin.

Ma'lumotni tahlil qilayotgan shaxs uni baholashda o'zining subyektiv fikrlariga, intuitiv tushunchalariga bog'liq holda harakat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ma'lumotlar bazasida noto'g'ri xulosalarning paydo bo'lish xavfini oshiradi. Misol uchun, ayrim statistik ma'lumotlar hududiy belgilarga qarab guruhlanadi, biroq hududlar o'rtasida muhim farq mavjud emasligi sababli, bu turdagi guruhlash statistik xatoliklar va noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Odatda, inson oddiyroq bog'liqliklarni aniqlashni afzal ko'radi: narx va sotuv hajmi, bozorga kirish va konversiya koeffitsienti, kredit xavfi va daromad orasidagi munosabat, hattoki ma'lumotlar bu munosabatni inkor etsa ham, u chiziqli bog'liqlik deb qabul qilinadi.

Shunday ekan, bugungi texnologiyalar rivojlanishi bilan bir qatorda qaror qabul qilish tizimiga sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish tendensiyasi ortmoqda. Ushbu tizimlar orqali inson tafakkurining kognitiv cheklovlari bartaraf etilishi va ma'lumotlar asosida aniq, tezkor hamda ishonchli qarorlar qabul qilinishi mumkin bo'ladi. 1-rasmda aynan bunday model ko'rsatilgan: sun'iy intellekt yagona mas'ul subyekt sifatida ishlatiladi va inson omilining cheklovlarini kompensatsiyalashda muhim rol o'ynaydi.



1-rasm – Sun'iy intellekt yordamida qaror qabul qilish

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini yanada rivojlantirish qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida insonni sun'iy intellekt (SI) tizimi bilan almashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Sun'iy intellekt deganda kompyuterlar va boshqa hisoblash moslamalarining o'zini shunday tutish qobiliyati tushuniladiki, ularning ishlash jarayoni inson ongining faolligi bilan taqqoslanadigan aqliy faoliyatga o'xshaydi. Mashinali o'qitish (keyingi o'rinlarda MO deb ataladi) qo'llaniladigan qaror qabul qilish algoritmlari va dasturlari bunga mashhur misollardir.

Algoritmlar ma'lumotlar bazasidan axborot olishning texnik vositalarini ta'minlaydi. Ular vazifani bajarish uchun kompyuter tomonidan bajariladigan ko'rsatmalar bo'lib, kerakli ma'lumotlarni topish, moslashtirish va olish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi. Dasturchilar bunday ko'rsatmalarni maxsus kodlar orqali aniq shaklda ifodalashadi. Bu holatda inson dasturga nima va qanday qilish kerakligini ko'rsatadi, dasturlash tilida qanday kirish ma'lumotlaridan foydalanish va ularni qanday qayta ishlash kerakligini belgilaydi.

O'z navbatida, MO algoritmlardan yanada kengroq foydalanishni ifodalaydi. Bunday hollarda, kompyuter dasturiga vazifani qanday bajarish kerakligi aniq ko'rsatilmaydi, balki u sekin-asta sinov va xatoliklar jarayonida o'z ko'rsatmalarini mustaqil ishlab chiqadi. MO — bu ma'lum bir ma'lumotlar to'plamida kompyuter dasturining avtonom faoliyati bo'lib, u berilgan muammoni hal qilish uchun yangi yondashuv ishlab chiqishga qaratilgan. Mashinali o'qitishning eng muvaffaqiyatli misollari chuqur o'rganish (keyingi o'rinlarda CHO' deb ataladi) asosidagi nazoratli o'qitish dasturlaridir, ular mavhumlashtirish va qayta kalibrlash orqali ma'lumotlarni tahlil qiladi.

Bu jarayon inson miyasining tafakkur jarayoniga o'xshab ketadi — dastur belgilangan etiketkali ma'lumotlar asosida o'qitiladi: ma'lumotlar to'plami tahlil obyekti sifatida xizmat qiladi, unda kompyuter yashirin qonuniyatlar, qoidalar va ketma-ketliklarni aniqlaydi va keyinchalik ushbu bilimlardan noma'lum ma'lumot to'plamida ham xuddi shunday vazifalarni bajarish uchun foydalanadi. [17]

Yashirin qonuniyatlar, qoidalar va ketma-ketliklarni aniqlash qobiliyati ayniqsa inson faqat taxmin qilishi mumkin bo'lgan, biroq kognitiv cheklovlar tufayli mustaqil anglay olmaydigan holatlarda nihoyatda muhimdir. Bu nuqtai nazardan MO katta ma'lumotlar bilan birgalikda innovatsion yechimlar taklif etadi. MO faqat inson tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalarni emas, balki inson umuman bajara olmaydigan, hisoblash imkoniyatlari cheklangan yoki murakkab qonuniyatlar va jarayonlarni anglay olmaydigan holatlarni ham bajara oladi.

Garchi inson uzoq yillardan beri kognitiv jarayonlarni o'rganib kelayotgan bo'lsa-da, inson qarorlarini baholash va sun'iy intellekt algoritmlarini yaratish bo'yicha bu soha hali ham to'liq tushunilmagan. Shunga




qaramay, noyob kompyuter muhandisi mashinani o'rgatish, talqin qilish va inson xatti-harakatlarini aniq bashorat qilishga qodir bo'ladi. Ayniqsa, mashinali o'qitish texnologiyalari bunga mustaqil tarzda erishishga imkon beradi.

Shunday qilib, intellektual mashinalar axborotni saqlash va qayta ishlash bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'lib, bilimlar noaniq bo'lgan va muammoni chuqur tahlil qilish talab etiladigan holatlarda insondan ustun bo'lishi mumkin. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda inson uchun yashirin bo'lgan imkoniyatlardan foydalanib, SI insonning dunyo haqidagi bilimlarini boyitadi va natijalar ortida qanday qonuniyatlar, qoidalar yashiringanligini aniq va tez ko'rsatib bera oladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari yanada aniq tahlil qilish vositalari orqali sifatli va mukammal xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashda turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Biroq SI texnologiyasiga dinamik yondashuv bilan qarash, ya'ni uning rivojlanish traektoriyasi haqida o'ylash zarur. Shunday qilib, vaqt o'tishi bilan SI tizimlari eksponensial, binomial taqsimotlar yoki geometrik progressiyalar kabi chiziqli bo'lmagan bog'liqliklarda ishlash uchun takomillashtiriladi yoki "o'qitiladi".

Mashinali o'qitish usullari axborotni izlash va keyingi tahliliy jarayonlar uchun sifatli ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida keng qo'llaniladi. Garchi inson bu jarayondan chiqarib yuborilgan bo'lsa-da, avtomatlashtirish SI boshqaradigan jarayonning yakuniy maqsadi emasligini anglash zarur. Xarajatlarni kamaytirishdan tashqari, SI ko'proq axborotni qamrab olishga va mukammal tahlil qilishga qodir.



2-rasm – Inson mulohazalari uchun yordamchi vositalar sifatida ma'lumotlar va sun'iy intellekt kombinatsiyasidan foydalangan holda qaror qabul qilish

Shaxsning o'zi qabul qiladigan qarorlarga nisbatan samaraliroq bo'lgan shablon qarorlar mavjud. Qaror qabul qilish tizimining bunday tuzilishi samaradorlikni sezilarli darajada oshirish, jumladan, boy berilgan imkoniyatlar sonini kamaytirish imkonini beradi.

– Sun'iy intellektidan foydalanishning ikkinchi varianti esa uni 2-rasmda ko'rsatilganidek, inson yordamchisi sifatida qaror qabul qilish ish jarayoniga kiritishdir.

Bunday yondashuv, hech bo'lmaganda, kompaniyaning faoliyati har doim ham ma'lumotlarning batafsilligi va tuzilishiga bog'liq bo'lmagan holatlarda maqbul hisoblanadi. Shunday qilib, konseptual qoidalar yoki korporativ qadriyatlar bilan bog'liq ba'zi boshqaruv jihatlari inson ongidan kelib chiqadi va madaniy kanallar hamda boshqa raqamli bo'lmagan aloqa vositalari orqali tarqaladi.

Masalan, sun'iy intellekt tizimi maksimal foyda olish uchun zarur bo'lgan zaxira darajasini aniq belgilashga qodir. Shunga qaramay, yuqori raqobat sharoitida menejerlar mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonining tezkorligini ta'minlash uchun yuqori darajadagi zaxiralarni yaratishlari mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellekt tizimi kompaniyaning o'z mahsulotlari va xizmatlarini ilgari surishga sarmoyani oshirish zarur, deb hisoblashi mumkin, chunki bunday qadam qisqa muddatli istiqbolda sezilarli foyda keltiradi. Ammo uzoq muddatli istiqbolda bunday holatda boshqaruvchilarning strategik qarashlari hisobga olinmasligi mumkin, aslida esa o'sishni vaqtincha to'xtatish zarur bo'lishi mumkin.

Natijada, sun'iy intellekt biznesni rivojlantirish uchun eng oqilona variantlarni taklif qilishi mumkin, biroq ular sanoatning o'ziga xos jihatlari, kompaniya strategiyasi yoki tashqi sharoitlarni hisobga olmasligi ehtimoldan xoli emas.

Bunday holatda sun'iy intellektning roli imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi, ulardan inson qo'shimcha ma'lumotlar tahliliga asoslanib eng yaxshi variantni tanlaydi. O'z navbatida, texnologiya inson uchun yordamchi rejimni tanlashga xizmat qiladi. Bu rejim ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, namunalarga asoslangan muammolarni hal qilishda yoki aniq bir vaziyatda qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni to'plash va taqdim etishda qo'llaniladi.

Taqdim etilgan qaror qabul qilish sxemasini ko'rib chiqamiz. Demak, raqamli texnologiyalardan, birinchi navbatda, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish korporativ boshqaruv amaliyotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning natijalari esa alohida jarayonlarning bajarilishiga va umuman kompaniya ish faoliyatiga ta'sir qiladi.



Biroq, qaror qabul qilish tizimida texnologiyalar rolini oshirish muqarrar ravishda dilemmaga olib keladi: bir tomondan, faqat ma'lumotlarga asoslangan algoritmik qarorlarning paydo bo'lishi rahbariyatning shaxsiy fikriga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi va foyda keltiradi. Ammo bu holatda javobgarlik qanday taqsimlanishi kerak?

Boshqa tomondan, audit qo'mitalari va direktorlar kengashining texnologik qo'mitalari o'rtasidagi hamkorlik korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun yangi texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni boshqarish orqali korporativ boshqaruv va biznesning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlar va u bilan bog'liq texnologiyalardan foydalanish direktorlar kengashining asosiy vazifalaridan biriga aylanadi.

O'z navbatida, qaror qabul qiluvchi subyektlar transformatsiyaning quyidagi to'rtta vositasidan foydalanishlari mumkin:

Raqamli ma'lumotlar (Big Data) – katta hajmdagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali bashorat qilish hamda oqilona qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi;

Avtomatlashtirish – inson tomonidan qabul qilinadigan an'anaviy qarorlar va sun'iy intellekt kombinatsiyasi yuqori sifatli va avtonom tizimlarda ishlash imkonini beradi;

Integratsiya – qaror qabul qilish zanjirining barcha bo'g'inlarini korporativ boshqaruvning turli yo'nalishlari bilan sinxronlashtiradi;

Korporativ boshqaruv tuzilmasiga raqamli kirish – boshqaruvchilarning faoliyatini, shuningdek, tashkilotdagi turli vertikal darajalarda qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini kuzatish va baholash imkonini beradi.

Biznes va korporativ muhitda raqamlashtirishning yuqoridagi vositalaridan foydalanish qaror qabul qilish jarayonlarini tubdan o'zgartiradi. 1-jadvalda biznes qarorlarini qabul qilish evolyutsiyasi tasvirlangan: ilgari bu ma'muriy va boshqaruv funktsiyalari doirasida edi, keyinchalik esa avtomatlashtirish orqali mashinalar yordamida qarorlar qabul qilina boshlandi. Kelajakda esa bu jarayon to'liq sun'iy intellekt tomonidan bajarilishi mumkin.

Tashkilotlararo integratsiyaning keyingi bosqichida ma'lumotlar oqimi real vaqt rejimida ishlaydi. Bu esa menejerlar va ijrochilar faoliyatining umumiy samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish boshqaruvchilar va xodimlarning qaror qabul qilish metodologiyasini to'liq o'zgartiradi. Kelajakdagi muvaffaqiyatli tashkilotlarning asosiy ustunligi bu – moslashuvchanlik va transformatsiyalash qobiliyatidir. Moliyaviy jihatdan qaror qabul qilishni raqamlashtirish foydani oshirishi kerak.

Shu sababli, so'nggi yillarda turli kompaniyalar tomonidan katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash imkoniyatlari kengaytirildi. Ularni tahlil qilish va oqilona foydalanish orqali maksimal daromadga erishish uchun boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu holat esa texnologiyalarni qaror qabul qilish tizimiga integratsiyalash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

1-jadval. Qaror qabul qilish jarayonining zamon va makon bo'yicha rivojlanishi

Qaror qabul qilish sharoiti	O'tmish	Hozirgi zamon	Kelajak
Aniklik sharoitida qaror qabul qilish	Inson	Avtomatlashtirish	Avtomatlashtirilgan
Xavf yuzaga kelish sharoitida qaror qabul qilish	Inson	Avtomatlashtirish boshlanishi	Avtomatlashtirilgan
Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish	Inson	Inson	Qisman avtomatlashtirilgan

Raqamli texnologiyalar — sun'iy intellekt, Internet Plus, katta ma'lumotlar, bulutli hisoblash va mashinali o'rganish (ML) — makroiqtisodiyot miqyosida ham, alohida kompaniyalar va tashkilotlar doirasida ham o'zgarishlarning yangi to'liqlinini yaratmoqda. Raqamlashtirishga eng sezgir sohalardan biri bu — boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimi ekanligi bejiz emas [18].

Raqamli transformatsiyaning asosiy afzalligi shundaki, u tadbirkorlik faoliyatining operatsion samaradorligini, jumladan qaror qabul qilish tizimini takomillashtirish orqali oshirish imkonini beradi. Oqibatda, raqamli transformatsiya kompaniyalarga qo'shimcha qiymat yaratishda yordam beradi. Raqamli transformatsiyaning iqtisodiy oqibatlarini o'rganish dolzarb mavzuga aylangan bo'lib, bu jarayonda bunday o'zgarishlarning zaruriyati ochib beriladi.

Birinchidan, korporativ qiymat va unumdorlik bo'yicha o'tkazilgan bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, katta ma'lumotlar, Internet Plus va bulutli hisoblash kabi raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi kompaniyalar:

operatsion samaradorlikni oshiradi;

mahsulot va xizmatlarning farqlanish darajasiga ta'sir qiladi;

xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytiradi;

mahsulotlarning innovatsionligini kuchaytiradi.

Bularning barchasi, tabiiyki, aktivlar rentabelligi va korxona qiymatining oshishiga olib keladi [19].



Bundan tashqari, tadqiqotchilar katta ma'lumotlardan foydalanish xulq-atvorni tahlil qilish, xavflarni bashorat qilish va biznes faoliyatini modellashtirish orqali korporativ innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. G. Shen va Z. Yuanlarning fikriga ko'ra, korxonalarni internetlashtirish hisoblash xarajatlarini kamaytiradi va bilimlar oqimini yaratadi, bu esa tashkilotning innovatsion salohiyat darajasini oshiradi.

Shuningdek, korporativ operatsiyalar va boshqaruvda raqamli texnologiyalar, xususan blokcheyn va katta ma'lumotlar, korporativ qarorlarni qabul qilish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar strategik boshqaruvni soddalashtirishi va uning sifatiga bevosita ta'sir qilishi mumkin.

Bozor ishtirokchilarining raqamli transformatsiyaga munosabatiga nazar tashlansa, kompaniyalar Internet, katta ma'lumotlar va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanayotganini oshkora e'lon qilganida, investorlarning reaksiyasi juda ijobiy bo'lishi kuzatiladi. Biroq, bu kabi informatsion "shov-shuv"lar kompaniya aksiyalarining qiymatini sun'iy oshirib, bozordagi spekulativ harakatlarga sabab bo'lishi, aksincha, ularning tushish xavfini ham oshirishi mumkin [20].

Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy oqibatlarini keng yoritilgan bo'lsa-da, ko'pchilik tadqiqotlar makro darajaga taalluqli bo'lib, dasturlar va tashabbuslarning sifat tahliliga urg'u beradi. Ammo, alohida kompaniyalarni raqamlashtirish, hamda korporativ boshqaruvga bevosita ta'sirini aniqlash masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.

Aynan shu nuqtai nazardan kompaniyalarda raqamli o'zgarishlarning zarurligini aniqlash, xususan strategik qarorlar qabul qilish tizimi orqali korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, axborot asimmetriyasi sharoitida korporativ boshqaruvdagi fundamental muammo bu — prinsipal-agent ziddiyati hisoblanadi. Bu borada korporativ ma'lumotlar va moliyaviy hisoblarni oshkoralik bilan e'lon qilish amaliyoti hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu esa manfaatdor tomonlarga boshqaruv samaradorligini baholash imkonini beradi.

Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hisobning past sifati ko'pincha foyda manipulyatsiyasida namoyon bo'ladi. Shu bois, kompaniyalarda raqamli transformatsiya zarurligini aniqlashda texnologiyalarning prinsipal-agent muammosiga ta'sirini tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mulkchilik va boshqaruv huquqlari ajratilgan zamonaviy korporativ tizimlarda menejment faoliyatini bevosita o'lchab bo'lmaydi. Shu sababli, bu holatda foyda va daromad ko'rsatkichlari rahbariyat zimmasidagi mas'uliyatni baholash uchun keng qo'llaniladi.

Shuningdek, kreditorlar daromad haqidagi ma'lumotlardan qarzдорlarni monitoring qilish, ularning to'lov qobiliyatini baholash uchun foydalanadilar. Agar foyda past bo'lsa va to'lov qobiliyati sustlashgan bo'lsa, kreditorlar kompaniya uchun moliyaviy resurslar narxini oshirishi mumkin.

Menejment uchun daromad haqidagi ma'lumotlar nafaqat qarz olish qiymati, balki mukofot tizimi bilan ham chambarchas bog'liq. Shu sababli, raqamli transformatsiya korxona aktivlaridan foydalanishdagi agentlik xarajatlarini kamaytirish orqali hisobot sifatini yaxshilashi mumkin.

Kompaniyalar raqamli texnologiyalar yordamida:

ichki ma'lumotlarni standartlashtirilgan va avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlashi,

yuqori rahbariyatning bevosita aralashuv doirasini qisqartirishi mumkin.

Bunday o'zgarishlardagi birinchi qadam — ma'lumotlar almashinuvi markazini yaratish bo'lib, bu operatsion va texnologik ma'lumotlarni yagona formatda qayta ishlashni ta'minlaydi. Ma'lumotlarni avtomatlashtirish va standartlashtirish:

moliyaviy ko'rsatkichlar sifatini oshiradi;

manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot asimmetriyasini kamaytiradi;

menejmentga foydani manipulyatsiya qilish imkonini cheklaydi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtiradi va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali kompaniya samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси" Фармони, 2022 йил 28 январь, ПФ-60. www.lex.uz
2. Веблен Т. Теория праздного класса. – Litres, 2022.; Veblen T., Mills C. W. The theory of the leisure class. – Routledge, 2017.;
3. Vernimmen P., Quiry P., Le Fur Y. Corporate finance: theory and practice. – John Wiley & Sons, 2022.;
4. Lien T. T. H. Ways Forward: Corporate Governance Policies // Board Directors, Financial Derivatives, and Corporate Governance: The Case of Vietnam. – Springer, Singapore, 2022. – C. 175-210.;



5. Ансоф И. Новая корпоративная стратегия. – СПб: Питер Ком, 1999. – 416 с.; Кукура, Сергей Петрович. «Теория корпоративного управления.» (2004).;
6. Кавыршина О. А., Букреев А. М. Экономический механизм корпоративного управления //монография/ОА Кавыршина, АМ Букреев.-Воронеж: Научная книга,-2007.-176 с. – 2007.;
7. Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана им. А.Наваи, 2005. – 132 с;
8. Вохидов М.М. Ўзбекистон акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув тизимининг ҳуқуқий муаммолари ва такомиллаштириш йўллари: Юрид. фан. номз.... дисс. иши. – Т.: ТДЮИ, 2007. – 171 б.;
9. Зайнутдинов Ш.Н., Раҳимова Д.Н. Корпоратив бошқарув асослари. – Т.: Академия, 2007. – 48 б.;
10. Карлибаева Р. Совершенствования системы корпоративного управления в узбекистане. //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.;
11. Расулов Н. Корпоратив тузилмаларда инновацион жараёнларни стратегик бошқариш услубиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати – Т.: ТДИУ, 2021 - 155 б.;
12. Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2006. – 116 б.;
13. Хамидуллин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008. – 204 с;
14. Хошимов А.А. Ўзбекистонда интеграциялашган корпорацияларни бошқариш. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 299 б.;
15. Яушев Р. Сущность и задачи формирования корпоративного управления. // Рынок ценных бумаг. – Ташкент, 2001. - №5. – С. 2-4.;
16. Перл, Дж. Понимание парадокса Симпсона / Дж. Перл // Probabilistic and causal inference: The works of Judea Pearl. – 2022. – С. 399-412. – ISSN 2581-7922.
17. Талиб, М. Систематический обзор литературы по аппаратной реализации алгоритмов искусственного интеллекта / М. Талиб // The Journal of Supercomputing. – 2021. – № 77. – С. 1897-1938. – ISSN 2224-266X
18. D.Kh. Suyunov, A.T.Kenjabaev Scientific Approaches to The Analysis of the Experience of Foreign Countries on the Development of Entrepreneurship in The Service Field.Wire Insights: Journal of Innovation Insights 1 (5), 1-7. 2023.
19. Д.Х.Суюнов Ўзбекистоннинг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкilotларида улар билан тизимли ишлаш механизмлари. Science and innovation 2 (Special Issue 13), 486-488.2023.
20. D.X. Suyunov Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies International journal of economic perspectives. 16 (11), 90-97.2022.
21. D.X. Suyunov, S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Дарслик–Toshkent 2022.450 бет.
22. A.K. Olimovich, M.Butabaev, S.D. Kholmuradovich Project management in the system of strategic company management Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11 (7), 40-44. 2023.
23. D.X. Suyunov Ways of its Development in Uzbekistan, BPG Economy Genius Repository 24, 7-15.2023.
24. Принятие управленческих решений в корпорациях. В схемах и таблицах: учебное пособие / И.Ю. Беляева, Ю.М. Цыгалов, О.В. Данилова 157 [и др.]. – Москва : КноРус, 2022. – 209 с. – ISBN 978-5-406-09412-9. – Текст : электронный. – DOI отсутствует. – URL: <https://book.ru/book/943092> (дата обращения: 01.04.2024)
25. Ибрагим, С. Влияние информационных коммуникационных технологий на деятельность коммерческих фирм / С. Ибрагим, З. Джебур // International Journal of Science and Engineering Applications. – 2019. – № 8 (2). – С. 53-56. – ISSN 2320-5407.
26. Шэнь, Г. Влияние интернетизации предприятий на инновации и экспорт предприятий / Г. Шэнь, З. Юань // Economic Research Journal. – 2020. – № 1. – С. 33-48. – ISSN 1932-6203.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>